

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI


"BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT" KAFEDRASI

Ro'yxatga olindi:

№ 306

2022 yil "29" 08

"TASDIQLAYMAN"
Q'quv ishlari bo'yicha prorektor
Bozorov O.N.
2022 yil



STATISTIKA

FANI

SILLABUSI

Bilim sohasi:	400000	- Biznes, boshqaruv va huquq
Ta'lif sohasi:	410000	- Biznes va boshqaruv
Ta'lif yo'nalishi:	60410500	- Bank ishi va audit

Qarshi – 2022 yil

Ushbu fan sillabusi 28.06.2022 yilda Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti tomonidan tasdiqlangan o'quv dasturi asosida tuzildi.

Tuzuvchi:

Turobov Sh.

-“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi katta o'qituvchisi

Taqrizchilar:

Yakubova Sh.

-QarDU “Turizm va marketing” kafedrasi mudiri, dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Egamberdiyeva S.

-“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari nomzodi.

Fan sillabusi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasining 2022 yil 24 08 dagi 1-son yig'ilishida hamda “Iqtisodiyot” fakulteti Uslubiy Komissiyasining 2022 yil 24 08 dagi 1-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, tasdiqlangan.

Institut Uslubiy Kengashining 2022 yil 29 08 dagi 1-son yig'ilishi qarori bilan o'quv jarayonida foydalanishga tavsiya etilgan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i:

Sh.R.Turdiyev

Fakultet uslubiy komissiyasi raisi:

A.B.Qurbanov

Kafedra mudiri:

A.Alikulov

“Statistika” fani sillabusি

Fan (modul) kodi STAT1108	O’quv yili 2022-2023	Semestr III/IV	ECTS krediti 8 4/4
Fan (modul) turi Majburiy	Ta’lim tili o’zbek		Haftalik dars soati 4/4
Fanning nomi	Auditoriya mashg’ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
Statistika	III semester 60 IV semester 60	60 60	120 120

O’qituvchi haqida ma’lumot

Kafedra nomi	Buxgalteriya hisobi va audit		
O’qituvchi	F.I.Sh.	Telefon raqami	e-mail
Ma’ruzachi	Turobov Sherzod Alisherovich	+998914537757	sh.turobov@mail.ru
Amaliy mashg’ulot	Turobov Sherzod Alisherovich	+998914537757	sh.turobov@mail.ru
Laboratoriya mashg’uloti	-		

I. Fanning mazmuni

Fanni o‘qitishdan maqsad – talabalarda bozor iqtisodiyoti sharoitida statistikaning nazariy, uslubiy va amaliy masalalarini har taraflama o’rgatish, bozor hodisalari o’rtasidagi sabab-oqibat bog’lanishlarini ochish uchun korrelyatsion-regression tahlilni qo’llay olish, statistik kuzatish natijasida olingan ma’lumotlarni kompyuter dasturlari yordamida yechish, olingan natija bo’yicha xulosa va takliflar qilish hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda yo’nalish profiliga mos bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifalari – talabalarda statistikaning predmeti va metodi, uning ahamiyati va roli haqida chuqur bilimga ega bo’lish, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardagi sodir bo’ladigan hodisalar to’g’risidagi ilmiy va tajribaviy gipotezalarni statistik tekshirish, statistika amaliyotida qo’llaniladigan hisobot shakllarini to’ldirish to’g’risida tasavvurga ega bo’lishni ta’minlash va ushbu sohada vujudga kelishi mumkin bo’lgan amaliy muammolarni yechishda statistik usullar hamda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalana olishni o’rgatishdan iborat.

II.Fan o'qitilishining natijalari (Shakllanadigan kompetentliklar)

Fanni o'zlashtirish natijasida talaba

- statistik masalalarni yechish masalalar ustida statistik kuzatish tashkil etish;
- statistik jadval va grafiklarni tushunarli qilib tuzish;
- guruhash turlari, statistik tasniflash va uning o'ziga xos xususiyatlarini talqin qilish haqida tasavvurga ega bo'lishi;
- MHTning asosiy hisoblamalarini tuzish va ularning ko'rsatkichlarini aniqlash;
- mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarni bilish;
- o'rtacha miqdorlar va variatsiya ko'rsatkichlarini o'rghanish;
- milliy boylik hajmi va uning indeksini hisoblash;
- milliy daromadni taqsimlash;
- mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida qatnashish darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarini tahlil qilish;
- davlat byudjeti ijrosini tahlil qilish;
- milliy hisoblar tizimidagi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni mohiyatini aniqlash bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak;
- iqtisodiy hodisalar o'rtasida o'zaro bo'flanish uslubiyatini o'zlashtirish;
- dinamika qatorlari va turlarini aniqlash;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida statistik ko'rsatkichlarni baholash, tahlil qilish va talqin etish;
- statistika amaliyotida qo'llaniladigan iqtisodiy indekslarni hisoblash;
- yalpi ichki mahsulot deflyatori va agregat indekslaridan foydalanish;
- pul muomalasini ifodalaydigan statistik ko'rsatkichlar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;
- -aholi turmush darajasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indekatorlarni tahlil qilish bo'yicha malakalariga ega bo'lishi kerak.

III.Ta'lim texnologiyalari va metodlari

- ma'ruzalar;
- interfaol keys-stadilar;
- seminarlar(mantiqiy fikrlash, tezkor savol- javoblar);
- guruhlarda ishlash;
- taqdimotlarni qilish;
- individual loyihalar;
- jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.

IV.Fan tarkibi. (Ma’ruza mashg’ulotlari)

№	Mavzular	Qisqacha mazmuni		Soat
		1- modul. Statistikaning umumiy nazariyasi		
1	Statistika faniga kirish	Statistika to’g’risida tushuncha. Statistika fani predmeti va uning o’ziga xos xususiyatlari. Statistika predmeti to’g’risida ilmiy-amaliy bahslar. Statistika fanining asosiy unsurlari va kategoriyalari hamda tushunchalari: statistik to’plam, to’plam birligi, variatsiya, o’zgaruvchan belgi, atributiv, tartiblangan va miqdoriy belgi, statistik ko’rsatkich, statistik qonuniyat. Ma’lumotlar tiplari. Statistikaning usullari va uslubiyati. Statistika fani va faoliyatining tabaqlaganishi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish sharoitida statistikaning vazifalari. Statistikaning tashkil etilishi va statistik axborotlarning olinishi	2	
2	Statistik ma’lumotlarni to’plash nazariyasi va amaliyoti	Statistik kuzatish-statistik tadqiqotning dastlabki bosqichidir. Statistik kuzatish tushunchasi, mohiyati va ahamiyati. Statistik kuzatishning asosiy tamoyillari. Statistik kuzatish rejasining dasturiy-uslubiy va tashkiliy masalalari:kuzatish ob‘ekti va birligi, kuzatish dasturi, kuzatish formulyari va yo’riqnomasi, organi, kuzatish joyi, kuzatish vaqt va muddati. Statistik kuzatish shakllari, turlari, usullari va ularning o’ziga xos jihatlari. Statistik hisobot, registr va maxsus tashkil qilingan statistik tekshirishlar. Yoppasiga va qisman kuzatish, uzlusiz(joriy) va uzlukli kuzatish, muntazam va bir yo’lakay kuzatish. Bevosita va hujjatli kuzatish, so’rovnama. O’zbekiston Respublikasida statistik kuzatishni tashkil etish hamda uning tarkibiy qismlari vazifalari. Statistik kuzatish xatosi va uning turlari. Statistik kuzatish ma’lumotlarini qabul qilish va tekshirish usullari	2	
3	Statistik jamlash va guruhash	Statistik jamlash - statistik tadqiqotning ikkinchi bosqichidir. Statistikada jamlash va guruhashning mohiyati va vazifalari. Statistik guruhash usuli, uning ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni o’rganishda ahamiyati. Guruhash turlari: oddiy va murakkab (ko’p o’lchovli) guruhash, tipologik, tuzilmaviy (strukturaviy) va analitik guruhashlar. Guruhlarni tuzish printsiplari (qoidalari). Guruhash belgisi. Guruhlar soni va oralig’i. Guruhash usuli yordamida yechiladigan masalalar. Taqsimot qatorlarining mohiyati, tarkibiy unsurlari va turlari. Atributiv variatsion, diskret va oraliqli qatorlar. Variatsion qatorlarni tuzish masalasi.	2	
4	Statistik ma’lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash	Statistik jadvallarning mohiyati, ahamiyati. Tuzish qoidalari. Statistik jadval turlari. Oddiy, guruhiy va kombinatsion jadvallar. Statistik jadvallarni o’qish va tahlil qilish usullari. Statistik grafiklar tushunchasi, turlari, ahamiyati va tuzish qoidalari. Statistik grafiklar to’g’risida tushuncha. Grafiklarning tarkibiy unsurlari: masshtab, shkala va koordinatalar tizimi. Sifat belgiga ega bo’lgan ma’lumotlarni grafikda tasvirlash. Ustunli grafik, doiraviy diagramma, Pareto diagrammasi. Miqdor belgiga ega bo’lgan ma’lumotlarni grafikda tasvirlash. Nuqtali grafik, band va barg grafigi, histogramma. O’zaro bog’lanishlarni grafikda aks ettirish. Variatsion qatorlarni tasvirlovchi grafiklarning turlari: poligon, histogramma, kumulyata, ogiva. Tasviriy statistikada haqiqatning buzib ko’rsatilishi	2	

5	Tasviriy statistika ko'rsatkichlari	Statistik ko'rsatkichlarning mohiyati va ahamiyati. Statistik ko'rsatkichlarning atributlari: sifat tomonga egaligi, miqdor tomonga egaligi, makon va zamonda uzil-kesil chegaralanganligi. Statistik ko'rsatkichlar tasniflari va turlari. Mutlaq, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar. Hajm va sifat ko'rsatkichlari. Momentli va intervalli ko'rsatkichlar. Statistik ko'rsatkichlarning ifodalanish shakllari. Nisbiy miqdorlarning turlari: reja (shartnom) topshirig'i, reja bajarilishi, dinamika; tuzilmaviy, koordinatsiya, taqqoslash va intensivlik nisbiy miqdorlari. Nisbiy ko'rsatkichlar turlari o'rtasidagi bog'lanishlar. Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarini statistik o'rganishda mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni birgalikda (kompleks) qo'llash zarurligi	2
6	O'rtacha miqdorlar	O'rtacha miqdolar va ularning tasnifi. Analitik o'rtachalarning turlari: arifmetik, gormonik, geometrik, kvadratik, kubik o'rtachalar. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarda o'rtachalarni qo'llash masalalari. O'rtacha arifmetik xossalari. O'rtacha arifmetikni "shartli moment" usuli yordamida hisoblash. Tuzilmaviy o'rtachalar turlari va ulardan statistik tadqiqotlarda foydalanish. Mediana mohiyati va uni taqsimot qatorlarida hisoblash tartibi. Moda va mediana intervalli variatsion qatorlarda hisoblash. Nisbiy joylashuvning miqdoriy o'lchovlar: kvartil; kvintil; detsil; pertsentil	2
7	Statistikada variatsiyani baholash usullari va dispersion tahlil asoslari	To'plamda biror belgi qiymatlarining variatsiyasi. Ommaviy hodisa va jarayonlarning sifat aniqligi va xususiyatlari. Variatsiyaning miqdoriy o'lchovlari: variatsion kenglik, bosh to'plam dispersiyasi va standart chetlanishi, tanlama to'plam dispersiyasi va standart chetlanishi, variatsiya koeffitsientlari. Standart chetlanishni talqin qilish: Chebishev qoidasi, empirik qoida. Asimmetriya ko'rsatkichlari. Ekstsess ko'rsatkichlari. Variatsiya ko'rsatkichlarining optimal chegaralari.	2
8	Dispersiya. Dispersiya turlari	Dispersiya va standart chetlanish xossalari va ulardan foydalanish. Dispersiya va standart chetlanishni "shartli moment" va "yig'indi" usullarida hisoblash tartibi. Muqobil belgi dispersiyasi. Chetki hadlar to'g'risida tushuncha. Chetki hadlarni aniqlash metodlari: quti shaklidagi diagrammalar va darajalar. Guruhlar ichidagi va guruhlararo dispersiyalar. Dispersiyalarni qo'shish qoidasi va uni ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar o'rtasidagi bog'lanishlarni o'rganishda qo'llash. Empirik korrelyatsion munosabat. Determinatsiya koeffitsienti.	2
9	Statistik tadqiqotlarda tanlab kuzatishning qo'llanilishi	Tanlab kuzatish mohiyati, uni qo'llash sabablari va afzalliklari. Maqsad parametrlerini aniqlash va baholash. O'rganilayotgan to'plam haqida amaliy jihatdan yetarli darajada to'la va aniq axborotlarni olish. Vaqt va mablag'ni tejash. Kuzatish ob'ektini kengroq va to'laroq o'rganish. Tanlama kuzatishda to'plam belgilari. Maqsad parametrlerini aniqlash va baholash. Tanlanmaning reprezentativligi va uni ta'minlaydigan tanlash usullari.	2

10	Tanlab kuzatish xatosi, tanlanma to'plam zaruriy miqdorini aniqlash va tanlab kuzatish natijalarini tarqatish yo'llari	Tanlab kuzatish turlari va xatosi. Kichik tanlanma va uning o'ziga xos xususiyatlari Tanlab kuzatish natijalarini bosh to'plamga tarqatish yo'llari. O'rtacha miqdor uchun ishonch intervali: Normal statistikasi. Bosh to'plam o'rtacha miqdori uchun ishonch intervali: Styudent (t) statistikasi. Tanlanma to'plam zaruriy miqdorini aniqlash. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tanlab kuzatishning qo'llash	2
11	O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish	Ijtimoiy-iqtisodiy hodisalar va jarayonlar o'rtasidagi bog'lanishlarni statistik o'rganish zarurligi va usullari. Guruhlash, parallel qatorlarni taqqoslash, grafiklarda tasvirlash, dispersion va korrelyatsion-regression usullar. Korrelyatsion-regression tahlilni qo'llashning shart-sharoitlari. O'zaro bog'lanishlar haqida tushuncha va ularning turlari: funktsional va korrelyatsion bog'lanish. Omillarning soniga qarab funktsional bog'lanishlar. Korrelyatsion tahlilda hodisalar orasidagi bog'lanishlarning zichlik darajasi	2
12	O'zaro bog'lanishlar zichligini o'rganish usullari	Juft korrelyatsiya va regressiya tenglamasi. To'g'ri chiziqli va egri chiziqli korrelyatsiya va regressiya. Korrelyatsiya koeffitsienti va uni hisoblash. Juft regressiya tenglamasi parametrlarini kichik kvadratlar usulida aniqlash. O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganishning noperametrik usullari. Bir va ko'p omilli regression modellar. Bog'liqlik zichligini o'rganish usullari. Fexner va Spirman korrelyatsiya koeffitsientlari.	2
13	Dinamikani statistik o'rganish uslubiyati	Dinamika qatorlarini analitik tahlil qilish ko'rsatkichlari: mutlaq o'zgarish, o'zgarish sur'ati, qo'shimcha o'zgarish sur'ati, bir foiz qo'shimcha o'zgarishning mutlaq mohiyati, o'zgarish (foiz) punkti. Dinamika qatorlarida o'rtachalarning darajasini hisoblash usullari. O'rtacha xronologik, oddiy va tortilgan o'rtacha arifmetik. O'rtacha o'zgarish va qo'shimcha o'zgarish sur'ati.	2
14	Iqtisodiy indekslar	Iqtisodiy indekslar tushunchasi, mohiyati, ahamiyati. Iqtisodiy indekslarning tasniflanishi (klassifikayasi). Individual va umumiy indekslar. Agregat indekslar va ularni tuzishda vazn tanlash muammosi. Laspeyres va Paashe indekslari. Miqdor va sifat ko'rsatkichlari indekslari. O'rtacha arifmetik va o'rtacha garmonik indekslar. Fisher indeksi.	2
15	Statistika amaliyotida iqtisodiy indekslarini qo'llash yo'nalishlari	Hududiy indekslar va ularni tuzishda vazn tanlash masalasi. Bazisli va zanjirli agregat indekslar. O'zgarmas va o'zgaruvchan vaznli agregat indekslar. Hududlararo taqqoslash indekslari va ularni tuzish masalalari. O'rtacha daraja dinamikasiga omillar ta'sirini indeks tahlili. O'zgaruvchan va o'zgarmas tarkibli indekslar. Tarkibiy siljishlar ta'sirini baholash. Tarkibiy siljishlar indeksi. "Statistik parodokslar"ni tushuntirishda tarkibiy siljishlar indeksini qo'llanishi. Ko'p omilli tarkibiy siljishlar va ularning ta'sirini indeks tahlili. Assortiment siljishlari va ularning ta'sirini indeks usuli yordamida tahlil qilish. Natijaviy ko'rsatkich mutlaq qo'shimcha o'sishiga ta'sir etuvchi omillar rolini indeks tahlili. Muhim iqtisodiy indekslar va ular orasidagi bog'lanishlar	2
	Jami III semestr bo'yicha		30

		IV semestr 2- modul. Ijtimoiy-iqtisodiyot statistika	
16	Aholi statistikasi	Aholi statistikasining paydo bo'lish tarixi. Aholi statistikasining o'rganshi ob'ekti. Aholi statistikasining asosiy vazifalari. Aholi soni va tarkibi statistikasi. Aholining o'rtacha sonini aniqlash usullari. Aholi umumiy soni va muhim belgilari bo'yicha taqsimlanishi. Aholi kategoriyalari: doimiy va mavjud aholi, vaqtincha yashovchilar va vaqtincha yo'qlar. Doimiy va mavjud aholi o'rtasidagi bog'liqlik. Aholini yoshi bo'yicha piramidasি.	2
17	Aholi harakatining statistik ko'rsatkichlari	Aholi tabiiy harakati ko'rsatkichlari: umumiylar, xususiy va maxsus ko'rsatkichlari. Aholi harakatining mutloq va nisbiy ko'rsatkichlari. Aholining mexanik harakati ko'rsatkichlari. Aholining demografik yuklama ko'rsatkichlari. Aholining kelajakdagi sonini bashoratlash (prognozlash). Aholining istiqboldagi sonini hisoblash global va yoshini siljish usullari yordamida hisoblash. Dunyo aholi dinamikasi va istiqboldagi sonini prognozlash.	2
18	Mehnat bozori statistikasi	Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat bozori statistikasining vazifalari va uni statistik o'rganishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati. Mehnat resurslari tushunchasi va uning sonini aniqlash. Mehnat resurslari balansi va uning ahamiyati. Iqtisodiy faol va nofaol aholi tushunchasi hamda ularning tarkibi. Ish bilan band aholi va ishsizlik statistikasi ko'rsatkichlari. Aholining bandlik holati bo'yicha tasnifi. Ish bilan band aholi soni va tarkibi ko'rsatkichlari. Ishsizlik shakllari, turlari va darajasi. Ishsizlik darajasi dinamikasini statistik o'rganish.	2
19	Mehnat resurslari balansi	Xodimlar statistikasi ko'rsatkichlari. Ishchi kuchi harakati ko'rsatkichlari. Ish vaqtি fondlari va ulardan foydalanish koeffitsientlari. Ishchi kuchi va ish vaqtি fondi balanslari. Mehnat unumdarligi to'g'risida tushuncha va uni statistik o'rganishning ahamiyati. Mehnat unumdarligining darajasi va dinamikasini aniqlash ko'rsatkichlari. Mehnat haqi shakllari va tizimlari. Ish haqi fondi va tarkibi ko'rsatkichlari. Ijtimoiy to'lovlar statistikasi	2
20	Milliy hisoblar tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi	Milliy hisobchilik tushunchasi va uning yuzaga kelish tarixi. Xalq xo'jaligi balansi (XXB) va milliy hisoblar tizimi (MHT) o'rtasidagi farqlari va o'xshashliklari. MHTni yuritish zaruriyat. MHT schyotlari tizimi tarkibi, ularni tuzishning umumiy qoidalari. Institutsional sektorlar va MHT. Makroiqtisodiy tahlillarda MHTdan foydalanish	2
21	Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari	YaIM – mamlakatning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichi ekanligi. Milliy hisoblar tizimida ishlab chiqarish sohasini chegaralash. Ishlab chiqarish hajmini aniqlash printsiplari (qoidalari) va baholash turlari: omil, asosiy, ishlab chiqaruvchi va xaridor baholari. YaIM hajmini hisoblash usullari. YaIM hajmini ishlab chiqarish usulida hisoblash. YaIM hajmini daromadlarni taqsimlash usulida hisoblash	2

22	Milliy daromad statistikasi	Daromadlar to'g'risida umumiy kontseptsiyalar va MHTdagi daromad ko'rsatkichlari. Dj Xinsning daromad haqidagi ta'limoti. Yangi MHTda Dj Xiksning ta'limotiga kiritilgan aniqliklar. Nominal va real daromad. Milliy daromadni taqsimlash, qayta taqsimlash va oxirgi foydalanish statistikasi. Yalpi milliy daromad, sof milliy ixtiyordagi daromad, yalpi milliy jamg'arma, sof milliy jamg'arma ko'rsatkichlari statistikasi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni xalqaro taqqoslash.	2
23	Milliy boylik statistikasi	Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida milliy boylik tushunchasi va uni o'rghanishning ijtimoiy -iqtisodiy ahamiyati hamda statistikaning vazifalari. MHT bo'yicha aktiv va passivlar balansi ko'rsatkichlari. Gudvill va marketing aktivlari, mineral resurslar energetik foydali qazilmalar. Moliyaviy aktivlar, ishlab chiqarilgan va ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar, aholining mulki	2
24	Asosiy va aylanma kapital statistikasi	Asosiy kapital tushunchasi, ularni tarkibi va baholash turlari (boslang'ich, qoldiq va tiklash qiymatlari bo'yicha). Asosiy kapitalning eskirishi va amortizatsiya ajratmalarini hisoblash usullari. Asosiy fondlarning balanslari. Asosiy fondlarning holati, harakati va ulardan foydalanish ko'rsatkichlari. Moddiy aylanma kapital statistikasi, ularning tarkibi, baholash, aylanuvchanlik tezligi va bir marta aylanishning davomiyligi ko'rsatkichlarini statistik o'rganish.	2
25	Moliya bozori statistikasi	Oliy moliyaviy hisoblashlar va taqribiy hisoblashlar: olliy foizlar; murakkab foizlar; diskontlash. Moliyaviy renta yoki annitet. Moliya bozorini statistik o'rghanishning ijtimoiy -iqtisodiy mohiyati va ahamiyati. Davlat moliyasi statistikasi. Davlat byudjeti statistikasining asosiy vazifalari. Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari ko'rsatkichlari, byudjet defitsiti (profitsiti)ni statistik o'rganish	2
26	Pul muomalasi va kredit statistikasi	Pul muomalasining ijtimoiy -iqtisodiy mohiyati va statistikaning vazifalari. Pul-kredit statistikasining metodologik asoslari (Xalqaro standart). Pul bazasi. Kredit va qarz. Pul muomalasi statistikaning asosiy ko'rsatkichlari. Bank statistikasi ko'rsatkichlarini hisoblash va tahlil qilish metodlari	2
27	Sug'urta bozorini statistik o'rghanish	Sug'urta bozori statistikasining predmeti va vazifalari. Sug'urta va sug'urta bozorini statistik o'rghanish. Sug'urta bozori statistikasining ko'rsatkichlar tizimi. Mol-mulkni sug'urtalash statistikasining ko'rsatkichlari. Sug'urtalashning tarif stavkalari statistikasi. Shaxsiy sug'urtalash statistikasi. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy sug'urtalash statistikasi.	2
28	Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi	Tashqi iqtisodiy faoliyat, uning tarixi va asosiy yo'nalishlari hamda mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotidagi roli. Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi metodologiyasi va uning vazifalari. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tavsiflovchi ko'rsatkichlar. Tashqi iqtisodiy aloqalarning makroiqtisodiy statistikada yoritilishi. Import va eksport turlari. Import va eksport hisoblarida qo'llaniladigan baholar. Tashqi savdo statistikasida indekslar usuli. Milliy hisoblar tizimida tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi.	2

29	To'lov balansi	To'lov balansi tushunchasi. To'lov balansining asosiy kontseptsiyalari va uni statistik o'rganishning ahamiyati. To'lov balansining klassifikatsiyasi va xalqaro investitsion yondashuv. To'lov balansining saldo kontseptsiyasi. Rivojlangan mamlakatlar ko'rsatkichlarini solishtrish printsiplari va MHT hamda to'lov balansini tuzish qoidalaridan foydalanish. To'lov balansi operatsiyalarini yozish printsipi. To'lov balansining moddalari.	2
30	Aholi turmush darajasi statistikasi	Aholi turmush darajasi tushunchasi. Aholi turmush darajasini tavsiflovchi ko'rsatkichlar tizimi. Aholi turmush darajasining sifat ko'rsatkichlari. Ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar o'rtacha va median ko'rsatkichlarda o'zgarish darajasi. Aholi turmush darajasini statistik o'rganish yo'naliishlari. Aholi turmush darajasini ifolalovchi sintetik va qiymat ko'rsatkichlari, fizik ko'rsatkichlari, boyliklar taqsimoti va tarkibi nisbatlarini ifodalovchi nisbiy ko'rsatkichlari. Inson imkoniyatlarini rivojlanish indeksi (inson salohiyatini rivojlanish indeksi).	2
Jami IV semestr bo'yicha			30

**Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar
(fan bo'yicha laboratoriya ishlari va kurs ishlari mo'ljallanmagan)**

№	Mavzular	Soati
	kuzgi semestr	
1	Statistika faniga kirish	2
2	Statistik ma'lumotlarni to'plash nazariyasi va amaliyoti	2
3	Statistik jamlash va guruhlash.	2
4	Statistik ma'lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash	2
5	Tasviriy statistika ko'rsatkichlari	2
6	O'rtacha miqdorlar	2
7	Statistikada variatsiyani baholash usullari va dispersion tahlil asoslari	2
8	Dispersiya. Dispersiyalar turlari	2
9	Statistik tadqiqotlarda tanlama kuzatishning qo'llanilishi	2
10	Tanlab kuzatish xatosi, tanlanma to'plam zaruriy miqdorini aniqlash va tanlab kuzatish natijalarini tarqatish yo'llari	2
11	O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish	2
12	O'zaro bog'lanishlar zichligini statistik o'rganish	2
13	Dinamikani statistik o'rganish uslubiyati	2
14	Iqtisodiy indekslar	2
15	Statistika amaliyotida iqtisodiy indekslarini qo'llash yo'naliishlari	2
Jami kuzgi semestr		30 soat
Bahorgi semestr		
16	Aholi statistikasi	2
17	Aholi harakatining statistik ko'rsatkichlari	2
18	Mehnat bozori statistikasi	2
19	Mehnat resurslari balansi	2
20	Milliy hisoblar tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi	2
21	Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari	2
22	Milliy daromad statistikasi	2
23	Milliy boylik statistikasi	2
24	Asosiy va aylanma kapital statistikasi	2
25	Moliya bozori statistikasi	2
26	Pul muomalasi va kredit statistikasi	2

27	Sug'urta bozorini statistik o'rganish	2
28	Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi	2
29	To'lov balansi	2
30	Aholi turmush darajasi statistikasi	2
	Jami	30 soat

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaol usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Unda talabalar asosiy ma'ruza mavzulari bo'yicha olgan bilim va ko'nikmalarini amaliy masalalar echish orqali yanada boyitadilar. Shuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida talabalar bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan faydalanish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali talabalar bilimini oshirish, masalalar echish, mavzular bo'yicha ko'rgazmali qurollar tayyorlash va boshqalar tavsiya etiladi

Laboratoriya mashg'ulotlari. Laboratoriya mashg'ulotlari rejalashtirilmagan.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi – o'qituvchining rahbarligi va nazoratida muayyan o'quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun bilim va ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish.

Talaba mustaqilishni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari va mavzularini o'rganish; - tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- maxsus adabiyotlar bo'yicha fanlar bilimlari yoki mavzulari ustida ishslash; - yangi texnikalarni, apparaturalarni, jarayonlar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularni chuqur o'rganish;
- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalilanigan o'quv mashg'ulotlari;
- masofaviy (distansion) ta'lim;
- referatlar yozishni standart talablarga mos ravishda va hisoblash texnikasidan foydalanib mustaqil bajarishni o'z ichiga oladi.
- ilmiy maqola, anjumanga ma'ruza tayyorlash va h.k..

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari:

- 1.Statistika faniga kirish
- 2.Statistik ma'lumotlarni to'plash nazariysi va amaliyoti
- 3.Statistik jamlash va guruhash
- 4.Statistik ma'lumotlarni jadval va grafiklarda tasvirlash
- 5.Tasviriy statistika ko'rsatkichlari
- 6.O'rtacha miqdorlar
- 7.Statistikada variatsiyani baholash usullari va dispersion tahlil asoslari
- 8.Dispersiya. Dispersiyalar turlari
- 9.Statistik tadqiqotlarda tanlama kuzatishning qo'llanilishi
- 10.Tanlab kuzatish xatosi, tanlanma to'plam zaruriy miqdorini aniqlash va tanlab kuzatish natijalarini tarqatish yo'llari
- 11.O'zaro bog'lanishlarni statistik o'rganish
- 12.O'zaro bog'lanishlar zichligini statistik o'rganish
- 13.Dinamikani statistik o'rganish uslubiyati
- 14.Dinamika qatorlarida prognozlash
- 15.Iqtisodiy indekslar

- 16.Statistika amaliyotida iqtisodiy indekslarini qo'llash yo'nalishlari
- 17.Aholi statistikasi
- 18.Aholi harakatining statistik ko'rsatkichlari
- 19.Mehnat bozori statistikasi
- 20.Mehnat resurslari balansi
- 21.Milliy hisoblar tizimi va makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi
- 22.Yalpi ichki mahsulot hajmini hisoblash usullari
- 23.Milliy daromad statistikasi
- 24.Milliy boylik statistikasi
- 25.Asosiy va aylanma kapital statistikasi
- 26.Moliya bozori statistikasi
- 27.Pul muomalasi va kredit statistikasi
- 28.Sug'urta bozorini statistik o'rganish
- 29.Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi
- 30.To'lov balansi
- 31.Aholi turmush darajasi statistikasi
- 32.Aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi

Mustaqil o'zlashtiriladigan mavzular bo'yicha talabalar tomonidan loyiha ishi, esse, tezis yoki ilmiy maqola yozish, referatlar tayyorlash va uni taqdimot qilish tavsiya etiladi.

VI. Talabalar bilimini baholash mezonlari va kreditlarni olish uchun talablar

Fanga oid nazariy materiallar ma'ruza mashg'ulotlarini ma'ruzalarda ishtiroy etish va kredit-modul platformasi orqali ma'ruzalarni mustahkamlash hamda belgilangan test savollariga javob berish orqali amalga oshiriladi.

Amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar hosil qilish va o'zlashtirish mashg'ulotlarga to'liq ishtiroy etish va modul platformasi orqali topshiriqlarni bajarish natijasida nazorat qilinadi.

Mustaqil ta'lif mavzulari modul platformasi orqali berilgan mavzular bo'yicha topshiriqlarni bajarish (test, referat va boshqa usullarda) bajariladi.

Fan bo'yicha talabalar test usulida oraliq nazorat va og'zaki (yoki test) usulida yakuniy nazorat topshiradilar.

Talabalar bilimi O'zbekiston Respublikasi OO'MTVning 2018 yil 9 avgustdaggi 9-2018-sodn buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lif muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi Nizom" asosida baholanadi.

Talabalarning bilimi quyidagi mezonlar asosida:

- talaba mustaqil xulosa va qaror qabul qiladi, ijodiy fikrlay oladi, mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 5 (a'lo) baho;

- talaba mustaqil mushohada yuritadi, olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 4 (yaxshi) baho;

- talaba olgan bilimini amalda qo'llay oladi, fanning (mavzuning) mohiyatni tushunadi, biladi, ifodalay oladi, aytib beradi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega deb topilganda — 3 (qoniqarli) baho;

- talaba fan dasturini o'zlashtirmagan, fanning (mavzuning) mohiyatini tushunmaydi hamda fan (mavzu) bo'yicha tasavvurga ega emas deb topilganda — 2 (qoniqarsiz) baho bilan baholanadi.

Yakuniy nazorat turini o'tkazish va mazkur nazorat turi bo'yicha talabaning bilimini baholash o'quv mashg'ulotlarini olib bormagan professor-o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

Fan dasturida berilgan baholash mezonlari asosida fanni o'zlashtirgan talabalabarga tegishli ta'lif yo'nalishi (magistratura mutaxassisligi) o'quv rejasida ushbu fanga ko'rsatilgan kredit beriladi.

VII. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. James T. McClave, Terry Sincich. Statistics. -12th ed. 2013. -814 p.
2. Shodiyev X. va Xabibullayev I. Statistika: darslik. –T.: “Iqtisod-moliya”, 2019. -454 b.
3. Soatov N.M, Nabihev X, A.H Ayubjonov. Amaliy statistika: darslik. – T.:Iqtisodiyot. 2020.-298 b.
4. Soatov N. Statistika. Darslik. –T.: Abu Ali Ibn Sino, 2003. -743 bet.

Qo'shimch adabiyotlar:

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // “Xalq so'zi” gazetasi, 2020 yil 25 yanvar, №19 (7521).
6. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
7. Mirziyoyev SH.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz”. Toshkent. O'zbekiston NMIU. 2017. -488 b.
8. Mirziyoyev SH.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi”. Toshkent. O'zbekiston NMIU. 2017. -48 b.
9. Ayubjonov A.H., Mamatqulov B.X., Sayfullayev S.N. “Statistika fanidan amaliy mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'quv qo'llanma”. –T.: TDIU, 2016. -180 bet.
- 10.Qoraboyev A., Rashitova N., Go'yipnazarov B. Milliy hisoblar tizimi: -T.: “Iqtisod-Moliya”, 2015. 426 b.
- 11.Елисеева И.И. Статистика: учебник. –М.: Юрайт, 2012. -559 с.

Axborot manbalari:

12. www.stat.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti.
13. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi hukumat portali.
14. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.

